
# So‘zboshi

“AHA! Matematika” mashq daftari darslikning ajralmas qismi hisoblanadi. Mashq daftari asosan uyda shug‘ullanishga mo‘ljallangan. Undagi turli xil amaliy mashq va masalalar, hayotiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Mashq daftari yordamida o‘quvchilar yangi matematik bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash bilan birga muammoli vaziyatlarda qo‘l keladigan mantiqiy fikrlash va mulohaza yuritish kabi hayotiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi.

Matematika olamiga sayohatingiz qiziqarli va maroqli bo‘lsin!

## Eslang

rukni o‘quvchilarni avvalgi mavzularda o‘rganilgan bilimlarni eslashga yo‘naltiradi.


Ism: Sinf: Sana:

7 Tezlik

Eslang

Me'yor, umumiy miqdor va birliklar sonini aniqlash

1 Bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

a) $\frac{1}{2}$ h = _____ min
b) $\frac{2}{3}$ h = _____ min
b) 15 min = _____ h
d) 25 min = _____ h
c) 45 s = _____ min
f) $\frac{3}{4}$ h = _____ min

2 Quyidagilarning birlik vaqtdagi miqdorini aniqlang.

a) Laylo 5 minutda 60 ta so'z yozdi. U har minutda nechtadan so'z yozgan?

b) Malika 8 soatda 92 000 so'm ish haqi oldi. U 1 soat uchun qancha ish haqi olgan?

1

## Topshiriq (D1 / D2 / D3)

1) D1 – birinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid asosiy tushunchalarni qanday o‘zlashtirganini baholaydi va ularga tayanch ko‘nikmalarni egallashda yordam beradi.

2) D2 – ikkinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid o‘rtacha murakkablikdagi tushunchalarni qanday o‘zlashtirganini baholaydi va ularga yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

3) D3 – uchinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalarni qanchalik chuqur o‘zlashtirganini baholaydi hamda ulardagi ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini nostandart, murakkab matematik masalalarni yechish orqali rivojlantiradi.


Ism: Sinf: Sana:

Tezlik

D1 1-topshiriq

1 Quyidagilarning tezligini yozing.

| | Tezligi |
|---|---|
| a) Qo'ng'iz 1 sekundda 3 cm yuradi. | |
| b) Samolyot 1 soatda 850 km masofaga uchadi. | |
| c) Ahmad 1 sekundda 6 metrga yuguradi. | |
| d) Avtobus 1 soatda 55 km masofani bosib o'tadi. | |
| e) Barno velosipedda 1 minutda 40 metr masofani bosib o'tadi. | |

2 Har bir spidometr ko'rsatib turgan tezlikni yozing.

a) b)

Ism: Sinf: Sana:

D2 4-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Jasur va Murod P shahardan Q shaharga velosipedda bordi. Jasur velosipedda 36 km/h tezlik bilan harakatlanib, Q shaharga $\frac{1}{2}$ soatda yetib bordi. Murod velosipedda 40 km/h tezlik bilan harakatlandi.

a) P va Q shaharlar orasidagi masofa qancha?

b) Murod velosipedda P shahardan Q shaharga qancha vaqtda yetib borgan?

Ism: Sinf: Sana:

D3 9-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.


1 G'olib amaki soat 10:00 da A shahardan B shaharga avtomashinasida yo'lga chiqdi. Uning orqasidan Kozim amaki ham soat 11:00 da A shahardan B shaharga o'zgarmas 80 km/h tezlik bilan avtomashinasida yo'lga chiqdi. Kozim amaki soat 13:00 da B shaharga yetib borganida G'olib amakining B shaharga yetishiga hali 10 km bor edi. G'olib amaki avtomashinasida qanday tezlik bilan harakatlangan?

25

i

## Amaliy topshiriq

rukni o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini namoyish qilish va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi.



Ism: Sinf: Sana:

Amaliy topshiriq

Kuboidning qirralarini o'lchab, asosining yuzi va hajmini toping.

Guruh bo'lib ishlang.

a) Kuboidning qirralarini o'lchab, 3 ta turli holat uchun uning asosi yuzi va balandligini aniqlang.

Namuna

b) Aniqlangan o'lchamlar asosida jadvalni to'ldiring.

| Bo'yi (cm) | Eni (cm) | Asosi yuzi (cm²) | Balandligi (cm) | Hajmi (cm³) |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |


c) Kuboid haqida nimalarni bilib oldingiz?

Kuboid asosining yuzi _____ xil va balandligi _____ xil bo'lishi mumkin.

53

## Matematika kundaligi

o‘quvchilarni matematikani o‘rganish jarayoni haqida fikrlashga undaydi.



Matematika kundaligi

Javohir hajmi 64 cm³ bo'lgan kubning qirrasi uzunligini topish uchun quyida ko'rsatilganidek kalkulyator tugmachalarini bosdi.

√ 6 4 =

a) Javohir to'g'ri javobni topa olmadi. Nima uchun?


b) Agar u kub ildiz tugmachasidan foydalanganida, qanday javob chiqar edi?

∛ 6 4 =

56

## Muammoli topshiriq

rukni o‘quvchilarni to‘rt bosqichli fikrlash jarayoni asosida mulohaza yuritishga va ijodiy yondashishga undaydi.



Muammoli topshiriq

A va B - kuboid shaklidagi idishlar. A idish asosining yuzi 480 cm², B idish asosining yuzi 640 cm². Dastlab A idishdagi suv sathining balandligi 50 cm bo'lib, B idish esa bo'sh edi.

50 cm

Yuzi = 480 cm²

A

Yuzi = 640 cm²

B

Botir A idishdan B idishga biroz suv quydi. Natijada A idishdagi suv sathi balandligi B idishdagi suv sathi balandligining ikki barobariga teng bo'lib qoldi. B idishdagi suv sathining balandligi qancha bo'ldi?

Reja


Yechish

54

## Takrorlash

rukni o‘quvchilarga egallagan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash hamda mustahkamlash imkonini beradi.

Hisoblashlarni bajarishda kalkulyatordan foydalanish mumkin.



Ism: Sinf: Sana:

I TAKRORLASH

Tezlik

1 Quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Masofa (km) | Vaqt (h) | Tezlik (km/h) |
|---|---|---|
| | 10 | 65 |
| 604 | 8 | |
| 1680 | | 280 |

2 X va Y shaharchalar orasidagi masofa 60 km. Y shaharchadan Z shaharchagacha masofa 150 km. Samad aka X shaharchadan Z shaharchaga yengil avtomobilda, Karim esa mototsiklda bordi. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Ism | X dan Y ga borish uchun ketgan vaqt | Y dan Z ga borish uchun ketgan vaqt | Jami bosib o'tilgan masofa | Jami sarflangan vaqt | O'rtacha tezlik |
|---|---|---|---|---|---|
| Samad aka | 1 h | 2 h | | | |
| Karim | 2 h | 5 h | | | |

3 Murod A shahardan C shaharga B shahar orqali bordi. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Sayohat | Tezlik (km/h) | Sarflangan vaqt (h) | Masofa (km) |
|---|---|---|---|
| A shahardan B shaharga | 60 | $\frac{1}{3}$ | |
| B shahardan C shaharga | 70 | $\frac{1}{2}$ | |
| | | Jami masofa | |

57



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 4 26/11/24 10:49

# MUNDARIJA


**7 TEZLIK ..... 1**

Eslang ..... 1
Tezlik ..... 3
Tezlik, bosib o‘tilgan masofa va vaqtni topish ..... 5
Ikki xil tezlikdagi harakatga doir matnli masalalar ..... 11
O‘rtacha tezlik ..... 15
Ikki jism harakatiga doir matnli masalalar ..... 19
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq ..... 27
Matematika kundaligi ..... 28

**8 HAJM ..... 29**

Eslang ..... 29
Kuboidning qirralarini  topish ..... 31
Kubning qirrasini  topish ..... 35
Kuboid va kubning bir yog‘i yuzini topish ..... 37
Matnli masalalar ..... 39
Amaliy topshiriq ..... 53
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq ..... 54
Matematika kundaligi ..... 56

**I TAKRORLASH ..... 57**




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 5 26/11/24 10:49

## 9 DOIRAVIY DIAGRAMMALAR ..... 63

Jadvallar, ustunli va chiziqli diagrammalar ..... 63
Ma’lumotlarni doiraviy diagrammada tasvirlash ..... 67
Doiraviy diagrammalardagi ma’lumotlarni o‘qish va talqin qilish ..... 71
Amaliy topshiriq ..... 79
Matematika kundaligi ..... 80

## 10 FAZOVIY JISMLAR VA ULARNING YOYILMALARI ..... 81

Eslang ..... 81
Konus, silindr, prizma va piramida ..... 83
Fazoviy jismlarni uch o‘lchamli panjarada chizish ..... 85
Fazoviy jismlarning yoyilmasi ..... 89
Amaliy topshiriq ..... 99
Matematika kundaligi ..... 100

## II TAKRORLASH ..... 101

## BILIMINGIZNI TEKSHIRING ..... 107




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 6 26/11/24 10:49

**Ism:** _____ **Sinf:** _____ **Sana:** _____

# 7 Tezlik

Eslang 

## Me’yor, umumiy miqdor va birliklar sonini aniqlash

**1** Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring.

| | |
|---|---|
| a) $\frac{1}{2}$ h = _____ min | b) $\frac{2}{3}$ h = _____ min |
| c) 15 min = _____ h | d) 25 min = _____ h |
| e) 45 s = _____ min | f) $1\frac{3}{4}$ h = _____ min |

**2** Quyidagilarning birlik vaqtdagi miqdorini aniqlang.

a) Laylo 5 minutda 60 ta so‘z yozdi. U har minutda nechtadan so‘z yozgan?

b) Malika 8 soatda 92 000 so‘m ish haqi oldi. U 1 soat uchun qancha ish haqi olgan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 1 26/11/24 10:49

**3** Jo‘mrakdan 30 minutda 750 $\ell$ suv oqadi.

a) Jo‘mrakdan 1 minutda qancha suv oqadi?

b) 12 minutda-chi?

**4** Printer 1 minutda 75 sahifa chop etsa, 15 minutda necha sahifa chop etishi mumkin?



**5** Dastgoh 20 minutda 560 ta detalga ishlov bersa, 840 ta detalga qancha vaqtda ishlov beradi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 2 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

# Tezlik

## D1 1-topshiriq

**1** Quyidagilarning tezligini yozing.

| | Tezligi |
|---|---|
| a) Qo‘ng‘iz 1 sekundda 3 cm yuradi. | |
| b) Samolyot 1 soatda 850 km masofaga uchadi. | |
| c) Ahmad 1 sekundda 6 metrga yuguradi. | |
| d) Avtobus 1 soatda 55 km masofani bosib o‘tadi. | |
| e) Barno velosipedda 1 minutda 40 metr masofani bosib o‘tadi. | |

**2** Har bir spidometr ko‘rsatib turgan tezlikni yozing.

a)




b)






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 3 26/11/24 10:49

**3** Jadvalda ba’zi hayvonlarning eng katta yugurish tezligi berilgan. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib quyidagilarga javob bering.

a) Yugurish tezligi bo‘yicha hayvonlarning o‘rnini belgilang.

| Hayvon | Tezligi (km/h) | O‘rni |
|---|---|---|
| Tuyaqush | 96 | |
| Gepard | 120 | |
| Sher | 80 | |
| Fil | 40 | |
| Zebra | 64 | |

b) Qaysi hayvon eng tez yuguradi? Uning tezligi qanday?

c) Qaysi hayvonning tezligi filning tezligidan ikki marta katta?

d) Tuyaqushning tezligi zebraning teziligidan qanchaga ko‘p?

**4** To‘g‘ri tasdiqlarni (✓ bilan) belgilang.

a) Muayyan masofani A mashina B mashinaga qaraganda kamroq vaqtda bosib o‘tdi. Demak, ...

| | |
|---|---|
| A mashina B mashinaga qaraganda sekinroq yurdi. | |
| A mashina B mashinaga qaraganda tezroq yurdi. | |
| B mashina A mashinaga qaraganda sekinroq yurdi. | |
| A va B mashinalarning tezligi bir xil. | |

b) $\frac{1}{2}$ soat ichida A mashina B mashinaga qaraganda kamroq masofani bosib o‘tdi. Demak, ...

| | |
|---|---|
| A mashina B mashinaga qaraganda sekinroq yurdi. | |
| A mashina B mashinaga qaraganda tezroq yurdi. | |
| B mashina A mashinaga qaraganda tezroq yurdi. | |
| A va B mashinalarning tezligi bir xil. | |



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 4 26/11/24 10:49

Ism: Sinf: Sana:

# Tezlik, bosib o‘tilgan masofa va vaqtni topish

## D1 2-topshiriq

**1** Quyidagilarning tezligini yozing.

| | Tezligi |
|---|---|
| a) Sevara 25 sekundda 100 metr masofaga yugurdi. | _____ m/s |
| b) Laziz amaki 2 soatda 10 km masofaga yugurdi. | _____ km/h |
| c) Javlon 20 minutda 800 metr masofaga suzdi. | _____ m/min |

**2** Quyidagilar uchun bosib o‘tilgan masofani yozing.

| | Masofa |
|---|---|
| a) Mushuk 5 cm/s tezlik bilan 10 sekund yurgan. | _____ cm |
| b) Poyezd 90 km/h tezlik bilan 5 soat yurgan. | _____ km |




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 5 26/11/24 10:49

**3** Quyidagilar uchun sarflangan vaqtni yozing.

| | Vaqt |
|---|---|
| a) Nortoy 1500 metr masofaga 300 m/min tezlik bilan yugurdi. | _____ min |
| b) Husan amaki mashinada 60 km/h tezlik bilan 120 km masofani bosib o‘tdi. | _____ h |

**4** Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

| | Masofa (km) | Vaqt (h) | Tezlik (km/h) |
|---|---|---|---|
| a) | | $6\frac{1}{6}$ | 72 |
| b) | 1050 | 12 | |
| c) | 2790 | | 180 |






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 6 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

## D1 3-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Fil 330 m/min tezlik bilan 10 minut yugursa, necha metr masofani bosib o‘tadi?

2. Samolyot 850 km/h tezlik bilan 9350 km masofaga uchib bordi. Uning uchish vaqti qancha?

3. Avtomobil 58 km/h tezlik bilan harakatlansa, $4\frac{1}{2}$ soatda qancha masofani bosib o‘tadi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 7 26/11/24 10:49

4 Jasur aka X va Y shaharlar orasidagi 256 km masofani avtomashinada bosib o‘tdi. U soat 12:00 da X shahardan chiqib, soat 16:00 da Y shaharga yetib keldi. Jasur aka avtomashinada qanday tezlikda harakatlangan?

5 Barno velosipedda ertalab soat 9:45 da uyidan chiqib, soat 10:30 da kutubxonaga yetib keldi. U velosipedda 16 km/h tezlik bilan harakatlangan bo‘lsa, qancha masofani bosib o‘tgan?



6 A va B shaharlar bir-biridan 420 km uzoqlikda joylashgan. A shahardan B shaharga 84 km/h tezlik bilan avtobusda borish uchun qancha vaqt ketadi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 8 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

## D2 4-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Jasur va Murod P shahardan Q shaharga velosipedda bordi. Jasur velosipedda 36 km/h tezlik bilan harakatlanib, Q shaharga $\frac{1}{2}$ soatda yetib bordi. Murod velosipedda 40 km/h tezlik bilan harakatlandi.

a) P va Q shaharlar orasidagi masofa qancha?
b) Murod velosipedda P shahardan Q shaharga qancha vaqtda yetib borgan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 9 26/11/24 10:49

**2** P va Q nuqtalar orasidagi masofa 3600 metrni tashkil etadi. Botir ertalab 8:35 da P nuqtadan yugurishni boshlab, Q nuqtaga 8:50 da yetib kelgan. Sobir ham u bilan birga P nuqtadan 200 m/min tezlik bilan yugurishni boshlagan. Kimning yugurish tezligi kattaroq va qanchaga katta?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 10 26/11/24 10:49

Ism: Sinf: Sana:

# Ikki xil tezlikdagi harakatga doir matnli masalalar

## D2 5-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Yusuf tog‘a 15 km/h o‘zgarmas tezlik bilan 30 minut yugurib, X nuqtadan Y nuqtaga bordi. U yo‘lini davom ettirdi va 12 km/h o‘zgarmas tezlik bilan 25 minut yugurib, Y nuqtadan Z nuqtaga bordi. X va Z nuqtalar orasidagi masofa qancha?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 11 26/11/24 10:49

**2** A va B shaharlar orasidagi masofa 48 km. Nasiba velosipedda 36 km/h o‘zgarmas tezlik bilan harakatlanib, A shahardan B shaharga bordi. U kelgan yo‘lidan orqaga qaytdi va velosipedda 40 km/h o‘zgarmas tezlik bilan harakatlanib, B shahardan A shaharga yetib keldi. Nasiba velosipedda A shahardan B shaharga borish va qaytib kelish uchun jami qancha vaqt sarflagan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 12 26/11/24 10:49

**3** Ravshan aka avtomashinasida uyidan qishloqqa olib boruvchi yo‘lning $\frac{4}{9}$ qismida 80 km/h tezlik bilan yurdi. Qolgan 30 km yo‘lni esa 30 minutda bosib o‘tdi. Ravshan aka butun yo‘lni qancha vaqtda bosib o‘tgan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 13 26/11/24 10:49

**4** Laziz amaki avtomashinada 80 km/h o‘zgarmas tezlik bilan harakatlanib, X shahardan Y shaharga $3\frac{1}{2}$ soatda yetib keldi. Avtomashinada Y shahardan X shaharga qaytib borish uchun esa 70 km/h tezlik bilan harakatlandi.

a) X va Y shaharlar orasidagi masofa qancha?

b) Y shahardan X shaharga qaytib borish uchun qancha vaqt ketgan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 14 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

# O‘rtacha tezlik

## D1 6-topshiriq

1 Quyida berilgan ma’lumotlardan foydalanib A shahardan C shaharga B shahar orqali borgan transport vositalarining o‘rtacha tezligini toping.

A va B shaharlar orasidagi masofa 50 km.
B va C shaharlar orasidagi masofa 100 km.

| Transport vositasi | A dan B gacha ketgan vaqt | B dan C gacha ketgan vaqt | Jami masofa | Jami vaqt | O‘rtacha tezlik |
|---|---|---|---|---|---|
|  mototsikl | 1 h | 2 h | | | |
|  avtomobil | $\frac{3}{4}$ h | $1\frac{1}{4}$ h | | | |
|  yuk mashinasi | 1 h | $1\frac{1}{2}$ h | | | |



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 15 26/11/24 10:49

**2** Husan A nuqtadan B nuqtaga borish uchun 6 km masofaga $\frac{2}{3}$ soat yugurdi. Keyin $1\frac{1}{3}$ soat yugurib A ga qaytib keldi. Husan qanday o‘rtacha tezlik bilan yugurgan?

**3** Adiba soat 8:30 da velosipedda X xiyobondan yo‘lga chiqib, Y xiyobonga soat 10:30 da yetib bordi va to‘xtamasdan Z xiyobonga jo‘nab, soat 11:30 da yetib bordi. Velosipedda X xiyobondan Z xiyobonga borishdagi o‘rtacha tezligi 10 km/h bo‘lsa, Adiba jami qancha masofani bosib o‘tgan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 16 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

## D2 7-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Kozim amaki G va H shaharlar orasidagi 240 km masofani avtomashinada bosib o‘tdi. U yo‘lning yarmini $1\frac{1}{5}$ soatda, qolgan 120 km masofani esa 60 km/h tezlik bilan bosib o‘tdi.

a) Kozim amakiga butun yo‘lni bosib o‘tishi uchun qancha vaqt kerak bo‘lgan?

b) Uning butun yo‘ldagi o‘rtacha tezligi qanday?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 17 26/11/24 10:49

**2** X va Y stansiyalar bir-biridan 150 km masofada joylashgan. Poyezd X stansiyadan chiqib, Y stansiyagacha yo‘lning dastlabki 126 kilometrini 72 km/h tezlik bilan bosib o‘tdi. Qolgan yo‘lni bosib o‘tishi uchun esa $1\frac{1}{4}$ soat kerak bo‘ldi. Poyezdning butun yo‘ldagi o‘rtacha tezligini toping.



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 18 26/11/24 10:49

Ism: Sinf: Sana:

# Ikki jism harakatiga doir matnli masalalar

## D2 8-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Rustam va Tolib X nuqtadan bir vaqtda qarama-qarshi yo‘nalishda velosipedda yo‘lga chiqdi. Oradan $\frac{2}{3}$ soat o‘tib, ular orasidagi masofa 21 km bo‘ldi. Rustam velosipedda 12 km/h o‘zgarmas tezlik bilan harakatlangani ma’lum. Tolibning velosipeddagi tezligini toping.



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 19 26/11/24 10:49

**2** Tohir va Sodiq amaki bir nuqtadan bir vaqtda qarama-qarshi yo‘nalishda avtomashinada yo‘lga chiqdi. Tohir amaki avtomashinada 55 km/h, Sodiq amaki esa 68 km/h o‘zgarmas tezlik bilan harakatlandi. $\frac{3}{5}$ soatdan so‘ng ular orasidagi masofa qancha bo‘ladi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 20 26/11/24 10:49

**3** Laziz amaki yuk mashinasida 45 km/h o‘zgarmas tezlik bilan A nuqtadan B nuqtaga 4 soatda yetib bordi. U borgan yo‘l bilan soat 11:00 da Tohir amaki ham yengil mashinada 80 km/h o‘zgarmas tezlik bilan A nuqtadan yo‘lga chiqsa, qachon B nuqtaga yetib boradi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 21 26/11/24 10:49

**4** Y va Z shaharlar orasidagi masofa 390 km. Ahmad aka avtomashinada soat 8:30 da Y shahardan Z shaharga 75 km/h o‘zgarmas tezlik bilan yo‘lga chiqdi. Xuddi shu payt Botir aka ham avtomashinada Z shahardan Y shaharga 55 km/h o‘zgarmas tezlik bilan yo‘lga chiqdi.

a) Ahmad aka va Botir aka qachon uchrashadi?

b) Ahmad aka bilan Botir aka Y shahardan necha km uzoqlikda uchrashadi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 22 26/11/24 10:49

**5** Soat 9:15 da Rasul R xiyobondan S xiyobonga yugurishni boshladi. U 100 m/min o‘zgarmas tezlik bilan yugurib, 40 minutda S xiyobonga yetib keldi. Soat 10:15 da Botir ham Rasul kelgan yo‘l bo‘ylab S xiyobondan R xiyobonga 80 m/min o‘zgarmas tezlik bilan yugurishni boshladi.

a) R va S xiyobonlar orasidagi masofa qancha? Javobni metrlarda ifodalang.

b) Botir R xiyobonga soat nechada yetib keladi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 23 26/11/24 10:49

**6** P va Q shaharlar orasidagi masofa 300 km. Avtomobil P shahardan tezligi 60 km/h bo‘lgan avtobusga qaraganda yarim soat kech chiqqan bo‘lsa-da, Q shaharga avtobusdan 1,5 soat oldinroq yetib keldi.

a) Avtomobilning tezligi qanday?

b) Agar avtomobil Q shaharga soat 18:00 da yetib kelgan bo‘lsa, soat nechada P shahardan chiqqan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 24 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

## D3 9-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. G‘olib amaki soat 10:00 da A shahardan B shaharga avtomashinasida yo‘lga chiqdi. Uning orqasidan Kozim amaki ham soat 11:00 da A shahardan B shaharga o‘zgarmas 80 km/h tezlik bilan avtomashinasida yo‘lga chiqdi. Kozim amaki soat 13:00 da B shaharga yetib borganida G‘olib amakining B shaharga yetishiga hali 10 km bor edi. G‘olib amaki avtomashinasida qanday tezlik bilan harakatlangan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 25 26/11/24 10:49

**2** Avtomobil X shahardan Y shaharga 4 soatda yetib boradi. Avtobus esa Y shahardan X shaharga 6 soatda yetib boradi. Agar ular soat 11:30 da yo‘lga chiqqani ma’lum bo‘lsa, soat nechada bir-biri bilan uchrashadi?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 26 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

## Muammoli topshiriq

Yuk mashinasi 60 km/h o‘zgarmas tezlik bilan P shahardan Q shaharga yo‘lga chiqdi. Ikki soat o‘tib, 75 km/h o‘zgarmas tezlik bilan uning orqasidan yengil mashina ham yo‘lga chiqdi. Yengil mashina yuk mashinasiga qancha vaqtda yetib oladi?

### Reja

### Yechish

### Tekshirish



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 27 26/11/24 10:49

## Matematika kundaligi



Aziza quyidagi masalani yechishi kerak.

Avtomobil A shahardan C shaharga B shahar orqali bordi. Jadvalda A shahardan B shahargacha, B shahardan C shahargacha masofalar, yo‘lning har bir qismidagi avtomobilning tezligi va bosib o‘tish uchun ketgan vaqti ko‘rsatilgan. Avtomobilning o‘rtacha tezligini toping.

| | **A dan B gacha** | **B dan C gacha** |
|---|---|---|
| **Masofa** | 100 km | 120 km |
| **Vaqt** | 2 h | 3 h |
| **Tezlik** | 50 km/h | 40 km/h |

Azizaning yechimi

O‘rtacha tezlik = (50 + 40) ÷ 2
= 90 ÷ 2
= 45 km/h

a) Azizaning xatosi nimada?

b) To‘g‘ri yechimni ko‘rsating.



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 28 26/11/24 10:49

Ism: Sinf: Sana:

# 8 Hajm

Eslang



## Kub va kuboidning hajmi


**1** Kublarning hajmini toping.

a)




Kubning hajmi =


b)




Kubning hajmi =


**2** Kuboidlarning hajmini toping.

a)




Kuboidning hajmi =

b)




Kuboidning hajmi =




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 29 26/11/24 10:49

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**3** Kuboid shaklidagi idishning bo‘yi 35 cm, eni 25 cm, balandligi 14 cm.

a) Idishdagi suv hajmini toping.


b) Idishni to‘ldirish uchun yana qancha suv kerak?




**4** Bo‘yi 42 cm, eni 30 cm va balandligi 30 cm bo‘lgan kuboid shaklidagi idishning $\frac{2}{5}$ qismi suv bilan to‘ldirilgan.

a) Idishda necha litr suv bor?

b) Idishni to‘ldirish uchun yana qancha suv kerak?
Javobni litrlarda ifodalang.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 30 26/11/24 10:49


Ism: Sinf: Sana:

# Kuboidning qirralarini topish


## D1 1-topshiriq

1 Kuboidlarning noma’lum qirrasi uzunligini toping.


a) Kuboidning hajmi 84 $cm^3$.




b) Kuboidning hajmi 432 $m^3$.




c) Kuboidning hajmi 180 $cm^3$.







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 31 26/11/24 10:49

**2** Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

| Kuboid | Bo‘yi (cm) | Eni (cm) | Balandligi (cm) | Hajmi ($cm^3$) |
|---|---|---|---|---|
| A | 6 | 3 | 5 | |
| B | 9 | 4 | | 468 |
| C | 18 | | 14 | 3024 |
| D | | 10 | 10 | 1100 |
| E | 14 | | 8 | 1568 |

**3** Hajmi 1200 $cm^3$ bo‘lgan kuboid 3 xil holatda tasvirlangan. Uning noma’lum qirrasi uzunligini toping.







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 32 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**


# D1 2-topshiriq

**1** Kuboidlarning noma'lum qirrasi uzunligini toping.


a) Kuboidning hajmi 336 $cm^3$. Asosining yuzi 48 $cm^2$.




b) Kuboidning hajmi 240 $m^3$. Bo'yalgan yog'ining yuzi 60 $m^2$.





c) Kuboidning hajmi 720 $cm^3$. Bo'yalgan yog'ining yuzi 120 $cm^2$.







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 33 26/11/24 10:49


d) Kuboidning hajmi 2100 $m^3$. Bo‘yalgan yog‘ining yuzi 700 $m^2$.




e) Kuboidning hajmi 6480 $cm^3$. Bo‘yalgan yog‘ining yuzi 360 $cm^2$.




f) Kuboidning hajmi 7644 $cm^3$. Bo‘yalgan yog‘ining yuzi 364 $cm^2$.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 34 26/11/24 10:49

Ism: Sinf: Sana:

# Kubning qirrasini topish

## D1 3-topshiriq

**1** Sonlarning kvadrat ildizini yoki kub ildizini toping.

| | |
|---|---|
| a) $2 \times 2 = 4$<br>$\sqrt{4} =$ | b) $6 \times 6 = 36$<br>$\sqrt{36} =$ |
| c) $3 \times 3 \times 3 = 27$<br>$\sqrt[3]{27} =$ | d) $9 \times 9 \times 9 = 729$<br>$\sqrt[3]{729} =$ |

**2** Sonlarning kvadrat ildizini toping.

| | |
|---|---|
| a) $\sqrt{225}$ | b) $\sqrt{400}$ |
| c) $\sqrt{625}$ | d) $\sqrt{961}$ |

**3** Sonlarning kub ildizini toping.


| | |
|---|---|
| a) $\sqrt[3]{1728}$ | b) $\sqrt[3]{3375}$ |
| c) $\sqrt[3]{8000}$ | d) $\sqrt[3]{15\,625}$ |




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 35 26/11/24 10:49

**4** Kublarning qirrasi uzunligini toping.

a) Kubning bo‘yalgan yog‘i yuzi 169 $cm^2$.





b) Kubning bo‘yalgan yog‘i yuzi 196 $m^2$.





**5** Kublarning qirrasi uzunligini toping.

a) Kubning hajmi 216 $cm^3$.




b) Kubning hajmi 64 $m^3$.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 36 26/11/24 10:49


**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

# Kuboid va kubning bitta yog‘i yuzini topish


## D1 4-topshiriq

**1** Kuboidlarning bo‘yalgan yog‘i yuzini toping.


a) Kuboidning hajmi 392 $cm^3$.




b) Kuboidning hajmi 455 $cm^3$.





c) Kuboidning hajmi 648 $m^3$.







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 37 26/11/24 10:49


**2** Kub hajmi 4913 $cm^3$. Kubning bo‘yalgan yog‘i yuzini toping.




**3** Bitta qirrasi uzunligi 26 cm bo‘lgan kuboidning hajmi 4056 $cm^3$. Uning bo‘yalgan yog‘i yuzini toping.




**4** Kuboid shaklidagi idishning asosi kvadratdan iborat. Uning hajmi 2304 $cm^3$, balandligi esa 16 cm. Asosidagi kvadratning yuzini toping.




**5** Kuboid shaklidagi idishning bo‘yi 32 cm, hajmi esa 14 400 $cm^3$. Idishning bo‘yalgan yog‘i yuzini toping.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 38 26/11/24 10:49

Ism: Sinf: Sana:


# Matnli masalalar

## D2 5-topshiriq


Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Asosi kvadratdan iborat bo‘lgan kuboidning balandligi 4 cm ga, hajmi esa 256 $cm^3$ ga teng.

a) Kuboid asosidagi kvadratning yuzini toping.
b) Kuboid asosidagi kvadratning tomoni uzunligini toping.




**2** Ikkita qarama-qarshi yon yoqlari kvadratlardan iborat bo‘lgan kuboidning hajmi 3025 $cm^3$. Bo‘yi 25 cm. Kuboid yon yog‘idagi kvadratlarning tomonini toping.








87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 39 26/11/24 10:49

**3** A va B kuboidlarning hajmi teng. B kuboidning bo‘yi 12 cm bo‘lib, ikkita qarama-qarshi yon yoqlari kvadratlardan iborat.

a) B kuboid yon yog‘idagi kvadratning yuzini toping.
b) B kuboid yon yog‘idagi kvadratning tomonini toping.




A kuboid




B kuboid

**4** Rasmda har birining hajmi 512 $cm^3$ bo‘lgan kublardan hosil qilingan A va B jismlar tasvirlangan. Har bir jism sirtining bo‘yalgan qismi yuzini toping.

a)


A jism


b)


B jism



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 40 26/11/24 10:49


**5** Hajmi 343 $cm^3$ bo‘lgan kub va bo‘yi 15 cm bo‘lgan kuboid yoqlari yelimlandi. Natijada quyidagidek yangi kuboid hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan yangi kuboidning hajmini toping.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 41 26/11/24 10:49

**6** 1-rasmdagi har bir kuboid 4 ta bir xil yog‘och bo‘lagidan iborat. Har bir yog‘och bo‘lagini arralab, 3 ta kubga ajratish mumkin. 1-rasmdagi kuboidlar birlashtirilib, 2-rasmdagi bo‘yi 60 cm bo‘lgan kuboid hosil qilindi. 2-rasmdagi kuboid hajmini toping.




1-rasm

2-rasm




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 42 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

# D3 6-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Alining kuboid shaklidagi idishi va 6 ta bir xil kichikroq qutisi bor. Har bir quti ikkita qarama-qarshi yog‘i yuzi 64 $cm^2$ bo‘lgan kvadratlardan iborat. U idishga 6 ta qutini quyida ko‘rsatilganidek 3 xil usulda joylashtirib ko‘rdi.




a) Idishga ko‘pi bilan nechta quti joylashtirish mumkin?

b) Idishning hajmini toping.



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 43 26/11/24 10:49

**2** Kuboid shaklidagi P yog‘och bo‘lagidan quyida ko‘rsatilganidek ikkita kichikroq A va B yog‘och bo‘lagi kesib olindi. A va B yog‘och bo‘lakchalari hajmlarining farqi 1320 $cm^3$.




a) P yog‘och bo‘lagining balandligini toping.

b) O‘lchamlari 27 cm, 30 cm, 50 cm bo‘lgan kuboid shaklidagi qutiga A yog‘och bo‘lagidan ko‘pi bilan  nechta joylashtirish mumkin?




87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 44 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**


# D1 7-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Akvarium kuboid shaklida bo‘lib, asosining yuzi 8 $m^2$ ga teng. Akvariumda 56 $m^3$ suv bor. Akvariumdagi suv sathining balandligini toping.





**2** Sig‘imi 17,64 $\ell$ bo‘lgan akvarium kuboid shaklida bo‘lib, asosining yuzi 980 $cm^2$ ga teng. Akvariumning $\frac{2}{3}$ qismi suv bilan to‘ldirilgan. Akvariumdagi suv sathining balandligini toping.







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 45 26/11/24 10:49

**3** Akvarium kuboid shaklida. Uning asosi tomoni 40 cm bo‘lgan kvadratdan iborat. Akvariumning $\frac{1}{3}$ qismi suv bilan to‘ldirilgan bo‘lib, undagi suvning hajmi 36 $\ell$. Akvariumning balandligini toping.




**4** Akvarium kuboid shaklida. Asosining yuzi 900 $cm^2$ bo‘lgan kvadratdan iborat. Akvariumga har birida 1,5 $\ell$ dan suv bo‘lgan 3 ta idishdagi suv quyildi. Akvariumdagi suv sathining balandligini toping.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 46 26/11/24 10:49


**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

# Y2 8-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Idish kuboid shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 60 cm, 50 cm va 40 cm. Idishga 72 $\ell$ suv quyilgan.

a) Idishdagi suv sathining balandligini toping.
b) Idishni to‘ldirish uchun yana qancha suv kerak?







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 47 26/11/24 10:49

**2** Kuboid shaklidagi A idish suvga to‘la, B idishning esa $\frac{1}{4}$ qismi to‘ldirilgan. A idishdagi suvning hammasi B idishga quyildi.

a) B idishga suv quyilgandan keyin undagi suv hajmi qancha bo‘ldi?


b) B idishga suv quyilgandan keyin undagi suv sathining balandligi qancha bo‘ldi?






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 48 26/11/24 10:49


**3** Asosi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi bo‘sh idishga minutiga 12 $\ell$ suv quyilib, yarim soatda to‘ldirildi. Idishning balandligini toping.






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 49 26/11/24 10:49

4 Bo‘sh idishning asosi to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat bo‘lib, uning bo‘yi 80 cm va eni 60 cm. Bo‘sh idish har minutda 24 $\ell$ suv quyib to‘ldirilmoqda. Idishdagi suv sathining balandligi 50 cm bo‘lishi uchun qancha vaqt ketadi?







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 50 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

## D3 9-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

**1** Bir xil hajmdagi A va B idishlarga suv to‘ldirilgan. A idishdagi suv bo‘sh X idishga quyilib, uning $\frac{4}{5}$ qismi to‘ldirildi. B idishdagi suv esa bo‘sh Y idishga quyildi. Y idishdagi suv sathining balandligini toping.







87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 51 26/11/24 10:49

**2** Quyida asosi to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat bo‘lgan A va B idishlar ko‘rsatilgan. A idish suvga to‘la, B idish esa bo‘sh. Jo‘mrak ochilgach, A idishdan B idishga minutiga 10 $\ell$ suv tusha boshladi. B idish suvga to‘ldirilganda A idishdagi suv sathining balandligi dastlabki balandligining $\frac{2}{3}$ qismiga teng bo‘ldi.

a) B idishni to‘ldirish uchun jo‘mrak qancha vaqt ochilgan?

b) A idishning balandligi qancha?

c) A idishni to‘liq bo‘shatish uchun necha minut kerak bo‘ladi?






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 52 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**


## Amaliy topshiriq

Kuboidning qirralarini o‘lchab, asosining yuzi va hajmini toping.

Guruh bo‘lib ishlang.

a) Kuboidning qirralarini o‘lchab, 3 ta turli holat uchun uning asosi yuzi va balandligini aniqlang.

**Namuna**



b) Aniqlangan o‘lchamlar asosida jadvalni to‘ldiring.

| Bo‘yi (cm) | Eni (cm) | Asosi yuzi ($cm^2$) | Balandligi (cm) | Hajmi ($cm^3$) |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

c) Kuboid haqida nimalarni bilib oldingiz?


Kuboid asosining yuzi _____ xil va balandligi _____ xil bo‘lishi mumkin.



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 53 26/11/24 10:49

## Muammoli topshiriq

A va B – kuboid shaklidagi idishlar. A idish asosining yuzi 480 $cm^2$, B idish asosining yuzi 640 $cm^2$. Dastlab A idishdagi suv sathining balandligi 50 cm bo‘lib, B idish esa bo‘sh edi.




Botir A idishdan B idishga biroz suv quydi. Natijada A idishdagi suv sathi balandligi B idishdagi suv sathi balandligining ikki baravariga teng bo‘lib qoldi. B idishdagi suv sathining balandligi qancha bo‘ldi?

### Reja

### Yechish



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 54 26/11/24 10:49

## Tekshirish



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 55 26/11/24 10:49

## Matematika kundaligi



Javohir hajmi 64 $cm^3$ bo‘lgan kubning qirrasi uzunligini topish uchun quyida ko‘rsatilganidek kalkulyator tugmachalarini bosdi.




a) Javohir to‘g‘ri javobni topa olmadi. Nima uchun?

b) Agar u kub ildiz tugmachasidan foydalanganida, qanday javob chiqar edi?






87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 56 26/11/24 10:49

**Ism:** **Sinf:** **Sana:**

# I TAKRORLASH

## Tezlik

**1** Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

| Masofa (km) | Vaqt (h) | Tezlik (km/h) |
|---|---|---|
| | 10 | 65 |
| 604 | 8 | |
| 1680 | | 280 |

**2** X va Y shaharchalar orasidagi masofa 60 km. Y shaharchadan Z shaharchagacha masofa 150 km. Samad aka X shaharchadan Z shaharchaga yengil avtomobilda, Karim esa mototsiklda bordi. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

| Ism | X dan Y ga borish uchun ketgan vaqt | Y dan Z ga borish uchun ketgan vaqt | Jami bosib o‘tilgan masofa | Jami sarflangan vaqt | O‘rtacha tezlik |
|---|---|---|---|---|---|
| Samad aka | 1 h | 2 h | | | |
| Karim | 2 h | 5 h | | | |

**3** Murod A shahardan C shaharga B shahar orqali bordi.
Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

| Sayohat | Tezlik (km/h) | Sarflangan vaqt (h) | Masofa (km) |
|---|---|---|---|
| A shahardan B shaharga | 60 | $\frac{1}{3}$ | |
| B shahardan C shaharga | 70 | $\frac{1}{2}$ | |
| | | Jami masofa | |



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 57 26/11/24 10:49

4 Orasidagi masofa 540 km bo‘lgan P shahardan Q shaharga poyezd 48 km/h tezlikda borib, qaytishda 60 km/h tezlikda yurdi.
Poyezd Q shahardan P shaharga qaytishda borishdagidan qancha kam vaqt sarflagan?



87 MATEMATICS WORKBOOK G6 P2 UZB 220x290 136PG (1) (1).indd 58 26/11/24 10:49

**5** A va B qishloqlar orasidagi masofa 30 km. Salim soat 8:30 da A qishloqdan B qishloq tomon velosipedda 12 km/h tezlikda yo‘lga chiqdi. Xuddi shu payt Hakim ham B qishloqdan A qishloq tomon velosipedda 16 km/h tezlikda yo‘lga chiqdi. Yarim soatdan so‘ng ular orasidagi masofa qancha bo‘ladi?



